

**BOLALAR NUTQIDA PRAGMATIK KOMPETENSIYANING SHAKLLANISHI
VA UNING AHAMIYATI (TO'XTAXON RAHIMOVA ASARLARI ASOSIDA)**

Payziyeva Nurjahon Abdurahmonovna

*Namangan viloyati Chortoq tumani MMTBga qarashli 54-maktab ona tili va adabiyot
fani o'qituvchisi tel: 93-676-16-96*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda pragmatik kompetensiyaning shakllanish bosqichlari nazariy va amaliy jihatdan tahlil etilgan. Bolaning kommunikativ faoliyatida pragmatik birliklardan foydalanish ko'nikmalari qanday bosqichma-bosqich rivojlanishi, bu jarayonda tarbiyachining roli, shuningdek, kontekstga mos muloqot qurish malakalari yoritilgan. Tadqiqot davomida bolaning til rivojida pragmatik kompetensiyaning ahamiyati, uni shakllantirishda oila va ijtimoiy muhitning o'рни ham alohida ko'rib chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *pragmatik kompetensiya, bolalar nutqi, maktabgacha ta'lim, muloqot, kontekst, tarbiyachi, til rivoji.*

Bolaning ijtimoiy hayotga moslashuvi, shaxs sifatida shakllanishi va muloqot madaniyatini o'zlashtirishi avvalo til vositasida amalga oshadi. Bola hayotining ilk bosqichlaridanoq o'z atrofidagi insonlar bilan muloqotga kirishish orqali nafaqat til birliklarini, balki bu birliklarning qanday kontekstda, qanday vaziyatda, qanday niyat bilan ishlatilishini ham o'rganadi. Bu jarayonning tub mohiyatida esa pragmatik kompetensiya yotadi.

Zamonaviy tilshunoslikda pragmatika til birliklarining kommunikativ kontekstdagi ishlatilishini, gapiruvchi va tinglovchi o'rtasidagi intensionallik va interaktivlikni o'rganadi. Shu asosda shakllanadigan pragmatik kompetensiya — bu shaxsning turli nutqiy vaziyatlarda til vositalarini maqsadga muvofiq, muloqot talablariga mos ravishda qo'llay olish qobiliyatidir. Bu kompetensiya ayniqsa maktabgacha yoshdagi bolalarda faol shakllanadi va uning rivoji bola shaxsi, psixikasi va sotsialligini chuqur ifoda etadi.

S. C. Levinson (1983) ta'kidlaganidek, "Pragmatika bu – gapirilayotgan so'zlarning ustida yotgan ma'noni, ya'ni gapiruvchining asl niyatini anglash jarayonidir" Demak, bolalar nutqini o'rganishda faqat grammatik jihatlar emas, balki bolaning muloqotdagi intensionalligi, til aktlaridan qanday maqsadda foydalangani, javobni qanday kutgani ham muhim ahamiyatga ega.

Bolalarda pragmatik kompetensiya shakllanishi ontogenez jarayoniga bog'liq bo'lib, til va nutq rivoji bilan uzviy aloqadadir. Bu rivojlanish ketma-ket bosqichlarda sodir bo'ladi va har bir bosqichda bola yangi nutqiy va kommunikativ ko'nikmalarni egallaydi. Aynan shu bosqichlarda bolalar ma'noli muloqot qilish, suhbatda ishtirok etish, konkret niyat bilan so'zlashish, javob kutish, savol berish kabi amaliy malakalarni o'zlashtira boshlaydi.

Bolalar nutqidagi pragmatik birliklar — bu muloqot jarayonida amalga oshadigan iltimos, buyruq, rad etish, taklif, savol, chaqiriq, ogohlantirish kabi nutqiy aktlarning amaliy ifodasidir. Ushbu birliklar bolaning ijtimoiy muhitga, suhbatdoshga va vaziyatga mos muloqot qila olish salohiyatini namoyon etadi. Ular bolaning pragmatik kompetensiyasi shakllanayotganining asosiy ko'rsatkichlaridir.

Quyidagi real kuzatuv misollaridan ko'rinib turibdiki, bolalar turli vaziyatlarda har xil pragmatik birliklardan foydalangan. Biz bu nazariyani misollar orqali tushuntirishga harakat qilamiz.

-Jonim bolam"-dedi ovozi allanechuk bo'lib o'zgarib, yana bir nimalar demoqchi bo'lib shivirladi va jim qoldi.

Bu misolda adib bolaga konversatsion strategiya asosida, to'g'ridan-to'g'ri murojaat qiladi. Yana shu usulda savol-javob shaklida ham muloqot qilishi mumkin. Masalan, Bola tilidan aytilgan quyidagi diologga e'tibor qaratsak,

-Ko'chatvoy, o'sayapsanmi?

-O'sayapman.

-Ekkan ko'chatlaringni hammasi ko'karadimi?

-Ha, ko'karadi. Barg chiqarib bo'y cho'zadi.

Bolajon tabiatni sevib u bilan muloqotga kirishyapti.

Bolalarda nutqning pragmatik jihatdan rivojlanishi — bu nafaqat tabiiy til o'zlashuvi, balki ijtimoiy va pedagogik ta'sirlar natijasi hamdir. Bu jarayonda tarbiyachi, o'qituvchi va otalarning faol, ongli ishtiroki hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ayniqsa, maktab yoshdagi bolalar uchun pragmatik kompetensiyani rivojlantirish kundalik muloqot muhitining sifati va kommunikativ faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv orqali shakllanadi.

Pragmatik kompetensiya faqat til qoidalarini bilish emas, balki nutqiy vazifalarni to'g'ri bajarishdir. Bu esa tarbiyachi tomonidan yaratilgan muhitga bog'liq:

- Ochiq savollarga asoslangan suhbatlar: Masalan:

“Musichaning ham momosi bo'ladimi?” “Tirik jon borki, uning onasi, momosi bo'ladi”- dedi. “Nega onasi emas, momosining ko'zini so'rayapsiz?” – dedi Ra'no

- Bolalar o'rtasida erkin muloqotni rag'batlantiruvchi uslublar. Masalan: “Barakalla bolalar, sizlar ham bog'zor qilishga hissa qo'shay debsizlar-da, umringizdan Baraka topinglar.” Bu misol kattalar tilidan aytilgan bo'lsa ham lekin kichik yoshdagi bolaga murojaat qilinyapti.

- Kichraytirish va erkalovchi shakllar: Masalan, “Buving o'rgilsin sendan, mitti qushcham” – dedi jamalak sochlarini silab buvijonisi.

Bu o'rinda ko'rinib turibdiki, kichraytiruvchi-erkalovchi shakllar yosh bolaga aytilganini so'zlovchining nutqiy ishorasidan ko'rishimiz mumkin.

Vigotskiy ta'limotiga ko'ra, bola yaqin rivojlanish zonasida ko'proq o'rgansa, nutq va tafakkur o'zaro uyg'unlashib boradi [Vigotskiy, L.S. (1983). Muloqot va tafakkur. Moskva: Pedagogika. Tarbiyachi aynan shu zona bo'yicha bolaning nutqiy faoliyatini oshiradi.

Pragmatik kompetensiya bolaning nafaqat grammatik jihatdan to'g'ri so'zlashi, balki o'z fikrini kontekstga, suhbatdoshga va vaziyatga mos holda ifoda eta olish, muloqotning maqsadini anglab, tegishli nutqiy vositalarni tanlay olish ko'nikmalarini o'z ichiga oladi. Bola muloqot jarayonida suhbatni boshlash, uni davom ettirish va tugatish, savol berish, rad etish, taklif qilish, suhbatdosh fikrini inobatga olish kabi amaliy ko'nikmalarni egallaydi. Bu jarayon esa uzluksiz ravishda oila, tarbiyachi va ijtimoiy muhit bilan aloqador tarzda shakllanadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bolalarda pragmatik kompetensiyani shakllantirish ularning ijtimoiy integratsiyasi, muloqot madaniyati va mustaqil fikrlash salohiyatini oshiradi. Ushbu kompetensiyani rivojlantirishda tarbiyachining faol ishtiroki hamda o'qiyotgan badiiy

asarlari, yodlayotgan she'rlari va muvofiqlashtirilgan pedagogik muhit va kontekstga yo'naltirilgan o'quv faoliyati hal qiluvchi ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Levinson, S. C. (1983). *Pragmatics*. Cambridge University Press
2. Usmonova M. Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqiy rivojlanish bosqichlari. // *Til va adabiyot ta'limi*, 2022, №3. – B. 65-68.)
3. Vigotskiy, L.S. (1983). *Muloqot va tafakkur*. Moskva: Pedagogika.